



Yoshlar o'rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib etish,  
jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun muhit va shart-sharoit yaratish zarur.  
Shavkat MIRZIYOYEV

# IJODIY PARVOZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

Bugungi O'zbekiston kundan-kunga takomil topib, buyuk qurilishlar maydoniga aylanib bormoqda. Yurtimizning qaysi go'shasiga bormang, har yerdan, har sohada katta islohotlar olib borilayotganining guvohi bo'lasiz.

amalga oshirilayotgan keng qamrovli va tizimli o'zgarishlardagi ishtiroki hamda tashabbuskorligi sezilmayotgani, ularning ushbu yo'naliishdagi faoliyati hanuzgacha qoniqarsiz bo'lib qolayotgani, oltinchanidan, respublikamizda olib borilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizga, keng jamoatchilikka tushuntirishda oly ta'lim muassasalarining faol ishtiroki yo'lga

## MADANIYAT VA SAN'AT RIVOJI – YURT VA KELAJAK POYDEVORI

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev xalqni bo'layotgan islohotlarga inontira olish, rozi qilish, ularning turmush sharoitlarini ko'tarish, ilmini, fanni, san'at va madaniyatni yuksak darajaga olib chiqish borasida sadoqat bilan mehnat qilish lozimligini bot-bot takrorlamoqdalar. Ayniqsa, oly ta'lim tizimida bo'layotgan islohotlar ham diqqatga sazovordir. Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirishga bo'lgan e'tibor esa tobora ortib bormoqda. Oly ta'lim muassalarida yoshlarga chuqur zamonaviy bilim berish, ularni xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, buning uchun esa oly ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar ham o'z ustida tinimsiz ishchlari, izlanishlari zarur masalalardan biri ekanligi ta'kidlanib kelinmoqda.

Mamlakatimizdagi islohotlar taqdiri kimga bog'liq? Savodli, savyiali kadrlarga bog'liq. Bunday mutaxassislar qayerda tayyorlanadi? Oly o'quv yurtlarida. Bugun oly o'quv yurtimiz ushbu talablarga javob beradigan kadrlar yetishtirishga qodirmi? Bu yo'lida qanday muammolar bor? Ming afsuski, respublika oly ta'lim tizimida yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Prezidentimiz tomonidan 2018-yil 5-iyunda imzolangan oly ta'lim sifatini oshirishga doir eng muhim qaror—Oly ta'lim muassasalarida uzoq yillardan buyon saqlanib kelayotgan qator muammolarning yechimiga qaratilgan “Oly ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ 3775-sonli qaror bizga bu borada hali ko'p ish qilishimiz kerakligini yana bir bor anglatdi. Qarorda muammolar ro'yrost aytilgan, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilangan. Oly ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar mas'uliyatini yanada oshirish, befarqlik, ko'nikish illatlaridan qutilish kerakligi uqtirilgan.

Qarorda oly ta'lim tizimidagi kamchiliklar ro'yrost keltirilgan bo'lib, uning yechimini topish uchun qator vazifalar belgilangan. Birinchidan, Oly ta'lim tizimida o'qitishni tashkil etish jarayoni, ta'lim olayotgan talabalar bilimini baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayotgani, ikkinchidan, professor-o'qituvchilarining faoliyatini, bilimini va pedagogik ko'nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsayotganligi, uchinchidan, oly ta'lim muassasalariga kirish test savollari abituriyentning mantiqiy fikrlash qobiliyatini aniqlash imkonini bermayotganligi iqtidorli yoshlarni oly ta'lim muassasalariga qabul qilishda muammolar keltirib chiqariyotganligi, to'rtinchidan, oly ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o'rnatilmaganligi ushbu sohada ko'plab muammolarning, eng avvalo, korrupsiya holatlarining saqlanib qolishiga sabab bo'layotgani, beshinchidan, oly ta'lim muassasalarining mamlakatda

qo'yilmaganligi, yettinchidan, oly ta'lim muassasalarini innovatsion va texnologik g'oyalari bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmaganligi, tegishli sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o'rganish, tahlil qilish va ularning yechimi bo'yicha taklif kiritish borasida professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning tashabbus ko'rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmaganligi ta'kidlab o'tilgan.

**Q**arorda professor-o'qituvchilar faoliyatini, bilimi va pedagogik ko'nikmasini baholash tizimining mavjud emasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan alohida ta'kidlangan. Ushbu tizimning yo'lga qo'yilmaganligi sababli bugun oly ta'limda faoliyat yuritayotgan pedagoglar ish natijasini tahlil qilish imkoniyati yo'q. Mazkur holat birinchi navbatda kadrlar tayyorlash sifatiga putur yetkazadi. Buning oqibatida yillar davomida yaxshi ishlagan, ko'rsatkichi yuqori yoki aksincha nomiga ishlayotgan, biron yutuqqa erishmagan professor-o'qituvchilarga bir xil qarab kelingan. Rag'bat va jazo choralarini yetarli darajada qo'llanmasligi tufayli yaxshi ishlayotganlarni ishga bo'lgan munosabati salbiy tomoniga o'zgaradi.

**X**ususan, madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida malakali kadrlar tayyorlash, yoshlarning madaniy savyasini yuksaltirishga qaratilgan ko'plab qaror va farmonlar imzolanib, hayotga tatbiq etilmoqda. Respublikamizda ayni shu soha bo'yicha malakali kadrlar tayyorlovchi yetakchi oly ta'lim muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ham tayyorlanayotgan kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlash borasida alohida ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz qarorida oly ta'lim muassasalarining, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardagi ishtiroki, tashabbuskorligi sezilmayotgani ko'rsatib o'tilgan. Bu achchiq haqiqatni tan olishdan boshqa ilojimiz yo'q. Chunki biz olimlar barcha sohalarda bo'layotgan o'zgarishlarga o'z vaqtida munosabat bildirishimiz, ilmimiz bilan yordam berishimiz, turli loyiha va takliflarni o'rtaga tashlashimiz kerak. Chunki biror-bir soha ilm-fansiz taraqqiy etmaydi, rivojlanmaydi.

**D**arhaqiqat, qarorda tilga olingan nuqsonlarni bartaraf etmasdan oly ta'lim tizimida sifatga erishib bo'lmaydi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamiyatimizning ma'naviy va madaniy savyasini oshirishga ulkan hissa qo'shadigan kadrlarni tayyorlovchi respublikamizdagagi yagona oly ta'lim muassasasi sanaladi. Bakalavr ta'lim yo'naliishlari, magistratura mutaxassisliklari hamda yangi o'quv yilidan boshlab ilk maxsus sirtqi ta'lim shakliga qabul qilish

Iqbol MIRZO,  
O'zbekiston xalq shoiri

### O'ZBEKISTON, YOLG'IZIM!

O'zbekiston, onajonim, yolg'izim,  
Bobolarim kaftidagi yulduzim,  
Jannatlardan suvlar ichgan ildizim,  
Jannat makonim mening, O'zbekiston,  
Jon ichra jonim mening, O'zbekiston!

Samandarsan – olovlardan sog' chiqqan,  
Buzrukorsan – yetti o'g'li shoh chiqqan,  
Alpomishsan – ko'ksidan chaqmoq chiqqan,  
O'lmas dostonim mening, O'zbekiston,  
Jon ichra jonim mening, O'zbekiston!

Yalpiz atrin bilmas dehqon bo'lgaymi?  
Tinchlik qadrin bilmas o'g'on bo'lgaymi?  
Yurtin sevmas odam inson bo'lgaymi?  
Nuri iymonim mening, O'zbekiston,  
Jon ichra jonim mening, O'zbekiston!

Necha asr ko'z yoshlarin yutgan el,  
Sohibqiron qaytishini kutgan el,  
Yurtboshini suyib, boshda tutgan el,  
O'zbekistonim mening, O'zbekiston,  
Jon ichra jonim mening, O'zbekiston!

orqali tayyorlanadigan kadrlar respublika uchun xizmat qiladi. Institutda malakali kadrlar tayyorlash maqsadida mavjud kamchiliklarni o'rganish, tahlil qilish va ularning yechimini topishga qaratilgan “Yo'l xaritasi”larini ishlab chiqish, aniq chora-tadbirlar belgilab, jamoamiz bilan ishslash sur'atini oshirish asosiy maqsad qilib olindi.

**B**unga jiddiy kirishildi. Institutning barcha professor-o'qituvchilari 2018-2020 yillarga mo'ljallangan “Yo'l xaritasi”ni o'zlarining xohishlariga ko'ra ishlab chiqdilar.

Bunda uch yo'lidan birini har bir o'qituvchi o'zi ixtiyoriy ravishda o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlashdi.

Bu uch yo'l quydagilardan iborat edi:

1. Ijodkor professor-o'qituvchilar tomonidan faxriy unvonlardan birini olishga erishish.

2. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan ilmiy unvonlarga ega bo'lish.

3. Bu yo'l – haqiqiy ilm yo'li, ya'ni o'z sohasi bo'yicha tadqiqotlar olib borib, fan doktori ilmiy darajasini olish.

Mazkur “Yo'l xaritasi” har professor-o'qituvchi tomonidan imzolanib, uch yillik reja ishlab chiqildi. Bu “Yo'l xaritasi” har bir professor-o'qituvchining uch yilda amalga oshirishi bo'yicha “qasamyodi” sifatida belgilandi. Demak, har birimiz o'z qasamyodimizga sodiq qolishimiz shart! Oldimizga qo'ygan marralarni baland olib, hamfikr bo'lib ishlaylik.

**Aziz va muhtaram professor-o'qituvchilar va jamoadoshlar!**

Kechagina Qurbon hayiti bayramini hamda navqiron davlatimizning 27 yoshi ya'ni Mustaqillik bayramini katta shodu xurramlik bilan kutib oldik. Mana shu imkoniyatdan foydalanib, siz — azizlarni ana shu qo'shaloq ayyomlar bilan samimi tabriklayman. Yangi o'quv yili jamoamizga katta zafarlar olib kelsin. Barchamizga jonajon yurtimizning kamolini, tarbiyalayotgan yoshlarimizning baxtu iqbolini ko'rish nasib etsin! Bayramingiz muborak bo'lsin!

**Ibrohim YO'LDSOSHEV,**  
**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor**

Eng aziz bayramlardan biri bo‘lmish Mustaqillik kuni har bir yurtdoshimiz qalbida o‘zgacha tuyg‘ular va hissiyotlarni uyg‘otayotganiga sira shubha yo‘q.

Bu yili ona Vatanimiz tamomila mustaqil davlat, deya tan olingenligiga 27 yil to‘lishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yetti yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq hududlarda “Aziz va yagonamsan, jonajon O‘zbekistonim!” shiori ostida ma’naviyat targ‘ibotlari a’lo darajada o‘tkazildi.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Yoshlar ittifoqi yetakchisi Bobur Ubaydullayev hamda tashkilot faoli Munisaxon Siddiqova Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi “Muqimiy”, “Paxtakor”, “Ziyokor” mahallalarida, Guliston shahridagi Tibbiyot birlashmasi, Sayxunobod tumanida targ‘ibot safarlarida bo‘lishdi. Tadbirlar davomida Muqimiy nomidagi O‘zbek Davlat musiqali teatrining faol aktyori, “Shuhrat” medali sohibi Rasulxon Qodirxonov ham birga bo‘lib, uchrashuvlarda “Yoshlar - kelajagimiz” davlat dasturining mazmun-mohiyatini yoshlarga to‘liq anglatish, kitobxonlik madaniyatini o‘stirish, yurtimizda yosh tadbirkorlarga berilayotgan imtiyozlar, shuningdek, Yoshlar ittifoqi tashkilotining yoshlar hayotidagi o‘rni, muntazam faoliyati borasida ma’ruzalar olib borildi. Uchrashuvlar qizg‘in bahsmunozaralarga, ijodiy fikrlarga boy bo‘ldi. Turli sohalarda o‘z iqtidori va salohiyatini namoyon etgan yoshlarga Yoshlar ittifoqi tashkiloti tomonidan kitoblar va boshqa esdalik sovg‘alari taqdim etildi.



**San’at olami meni hamisha o‘ziga maftun etib kelgan edi. Balalagimdan san’at sohasiga qiziqishim yuqori bo‘lganligi bois, hozirda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida tahsil olaman. Men Jannatmakon O‘zbekistonimizning eng baxtli yoshlaridan biriman. Sababi joriy yilning 29 iyun sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida bo‘lib o‘tgan Toshkent shahar va tuman hokimliklari, mutasaddi rahbarlari va Olmazor tuman faollari yig‘ilishida yosh vakil sifatida ishtirok etdim.**

Yig‘ilish davomida Davlatimiz rahbari “Qani yoshlarimizda menga qanday takliflar bor?” — deb murojaat qilganlarida 4 nafar tengdoshim bo‘lgan yigitlar o‘zlarining takliflarini bildirishdi. So‘ng: “Qizlarimizda qanday takliflar bor? — deya menga yuzlandi. “Qani shu qizim gapirsinch? — dedilar. Ming hayajon ila Prezidentimizga o‘zimning birgina “Maktabgacha ta’lim muassasalar bilan madaniyat muassasalarining o‘rtasida doimiy ravishda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha maxsus dastur ishlab chiqilishi” kerak degan taklifni bildirdim.

Prezidentimiz mening taklifimga o‘zlarining samimi fikrlarini bildirib, bu hali qo‘l urilmagan ish ekanligini alohida ta’kidladilar. Bu taklif, bola tarbyasiga nihoyatda ijobjiy ta’sir etishi, juda muhim va dolzarb masala ekanligini ta’kidlab, bir qancha mutassaddi rahbarlarga taklif ijrosini ta’minalash yuzasidan o‘zlarining topshiriqlarini berdilar.

Meni qo‘llab-quvvatlab birgina taklifimni Davlat dasturi darajasiga ko‘tardilar. Bu men uchun juda katta baxt.

Hozirgacha yig‘ilishdagi taassurotlarim hayolimdan sira ketmaydi. Oila a’zolarim, ustozlarim va do’starimga shu kungi hayajon va taassurotlarimni quvonch ila to‘lib, toshib so‘zlab berayapman.

**“Otam ko‘p yillar avval vafot etganligi bois, Prezidentimizni O‘zbekiston yoshlariga bo‘lgan otalarcha g‘amxo‘rliklarini his etdim va menga gapiganlarida otam gapirgandek bo‘ldi. O‘scha vaqtida ko‘zlarimga quvonch yoshlari keldi.”**

Bu rag‘bat meni hamisha yuksakkakka intilishimga qanday qiyinchiliklar bo‘lmasin barchasini yengib o‘tishimga, orqaga chekinmasligimga, o‘z oldimga qo‘ygan maqsadlarimning barchasiga mehnatim bilan harakat qilib erishishimga katta kuch va madad bo‘ldi va meni yanada o‘zimga bo‘lgan ishchimni orttirdi.



**Yoshlar ittifoqi faoliyatidan**

## Mustaqil yurtdagi baxtiyor kunlar

Guliston shahri “Obod yurt” mahallasidagi yosh quruvchilar bilan uchrashuv ham qiziqrli o‘tdi. Mazkur maskan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagи “Obod qishloq” dasturi to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq obodonlashtirilayotgan hududlar qatoriga kiritilgan bo‘lib, hozirda bu yerda keng doiradagi bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Barcha quruvchilar yurtimizda adolat prinsiplari ostida olib borilayotgan qator islohotlarning natijasi, har sohada qo‘llanilayotgan innovatsion g‘oyalarning ko‘lamni borasidagi fikrlarini bildirib, yangi takliflarini keltirib o‘tishdi.

Ma’naviyat targ‘ibotlarini a’lo darajada o‘tishida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining alohida o‘rni bor. Shuningdek, tadbirlar davomida “Strategik harakatlar” doirasida bugun yurtimizning har jabhasida olib borilayotgan yoshlar ma’naviyatiga oid har qanday islohotlarning tub mohiyatida ulg‘ayib kelayotgan yangi avlod ongini o‘stirish, kelajakka barkamol vorislar tarbiyalashdan iborat ekanligi haqida ma’ruzalar tinglandi. O‘ylaymizki, bu tashabbus va uchrashuvlar o‘z samarasini berib, yoshlarimiz aniq maqsad yo‘lida yanada faol va intiluvchan kuchga aylanishadi.

“Aziz va yagonamsan, jonajon O‘zbekistonim!”

shiori ostidagi hur O‘zbekistonimiz Mustaqilligining 27 yillik bayramiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan ma’naviyat targ‘ibotlari mustaqil yurtdagi baxtiyor kunlarning unutilmas xotiralarida, kelajakka buyuk maqsadlar, shahdam qadamlar ila intilayotgan barkamol avlodning shijoatida aks etmoqda. Bugun yurtimiz jahoning ko‘plab davlatlari qatorida o‘z totuvligining bardavomligi, porloq kelajagi nurafshon manzillarga qurilayotganligi bilan ko‘zga tashlanayotgan bebeho zamindir! O‘zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 27 yillik bayrami barchaga qutlug‘ bo‘lsin!

**Dostonbek RAHMATULLAYEV,  
“San’at nazaritasi va tarixi (kinoshunos)”  
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti**



## IZLANGAN, ALBATTA, IMKON TOPAR!



Kelajakda institutni a’lo baholarga tamomlab, o‘z sohamni ilmiy jihatda mukammal o‘rganishni maqsad qildim va magistraturada o‘qishni davom ettirmoqchiman. Bunga esa harakatni hozirdan boshladim. Ayni vaqtida «Maktabgacha ta’lim muassasalarini tarbiyanuvchilarining insonorvarlik fazilatlarini shakllantirishda san’at va madaniyat muassasalarining o‘rni» mavzusida ilmiy izlanishlar olib bormoqdamen. Bunda ilmiy rahbarim institutimiz rektori, filologiya fanlari doktori, professor Yo‘ldoshev Ibrohim Jo‘rayevich mavzuni ilmiy jihatdan mukammal o‘rganishimga ko‘mak berib kelmoqda. Shogirdni komil inson bo‘lib ulg‘ayishida bevosita ustozlarning o‘rni beqiyos ekan. Ustozlarimga doimo ta’zimdamen.

Mening yagona orzuym bitta. Onam, prezidentimiz va ustozlarimning menga bildirgan ishchonclarini oqlashdir.

Oilada 3 nafar farzandmiz. Onam bizga ham ota ham ona bo‘lib keldilar. Onajonimdan bir umr minnatdorman. Bizni 6 yildan beri otasiz katta qilib kelyaptilar. Iloyim hamisha baxtimizga

sog‘ bo‘lsinlar. Bugun erishayotgan yutuqlarimning barchasida onajonimning duolari qo‘llab turibdi. Onajon sizga katta rahmat. Orzularingizni ro‘yobga chiqarib, ko‘zingizda faqatgina quvonch va baxtni ko‘rishni istayman. Ishonch bilan aytamanki, bugun otam ham albatta meni yutuqlarimni ko‘rib qo‘llab-quvvatlab turganliklarini yuragimdan xis etdim. Men nasib etsa o‘z oldimga qo‘ygan maqsadlarimning barchasiga albatta erishaman.

Aziz tengdoshim. Barchangizga o‘zingizga bo‘lgan ishonch baland bo‘lishini, orzu umidlarining, maqsadlarining qanday mashaqqat bilan bo‘lmasinalbattao‘zkuchingizvag‘ayratshioatingiz bilan yetishishingizni tilab qolaman. Barchangizga yangi o‘quv yili qutlug‘ bo‘lsin. O‘qish va ishlariningizga omadlar tilayman!

**Azizaxon ISMANOVA,  
Xalq ijodiyoti fakulteti “Madaniyat  
va san’at muassasalarini tashkil etish  
va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi  
4-bosqich talabasi**

O'zbek san'ati rivoji uchun fidokorona mehnati bilan o'zining ulkan hissasini qo'shgan mashhur siymolar oz emas. Mukarrama Turg'unboyeva-o'zbek raqs san'atida o'z mifiktabini yaratara olgan san'atkordan biridir.

O'zining yuksak mahorati, qizg'in hayoti bilan raqs san'ati tarixida yorqin iz qoldirgan afsonaviy siymolardan biri ustoz san'atkor Mukarrama Turg'unboyeva tavalludiga ham 105 yil to'ldi. Sahnaga chiqqanida 16 yoshda bo'lgan Mukarrama Turg'unboyeva raqs san'ati uning taqdirliga aylanganini yurakdan anglab yetgandi. U raqs sirlarini qunt bilan o'rganishga kirishdi. Bu borada unga an'anaviy san'atimizning piri-ustozlari Usta Olim Komilov, Yusufjon Qiziq Shakarjonov va Otaxo'ja raqqoslar yaqindan yordam berdilar. Raqs san'atidan tahlil olgan raqqosa, ustozlar mifiktabini davom ettirish bilan birga o'z uslubini yaratishga intildi. O'zbek raqsi asoschisi, Mukarrama Turg'unboyeva ijro etgan "Tanovar", "Janon", "Pilla", "Munojot" singari raqlarda umumlashma poetik obraz yaratishga intilish bor edi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Mukarrama Turg'unboyeva raqlarida har bir harakatida o'sha davr ruhiyati aks etib turardi. Tomoshabinga nimanidir so'zlayotgandek, biror bir fikrni ifodalayotgandek edi. Aniqrog'i har bir harakatning o'z so'zi bor edi. Raqqosalarning qo'l va oyoq harakatlari, yuzdagi nim tabassumi yoqimli va hayoli imo-ishoralarining barida fikrlar uyg'unligi yotardi.

Ustozning yorqin xotirasiga bag'ishlangan "Maftunkor raqlar sehri" deb nomlangan hisobot konsert dasturida ham raqqosa mahorat bilan ijro etgan milliy raqs namunalari "Sahna harakati va jismoniy madaniyat" kafedrasi o'qituvchisi Saida Zokirova boshchiligidagi "Shodiyona" raqs ansamblining go'zal qizlari tomonidan ijro etildi.

Ustoz Mukarrama Turg'unboyevanining mifiktablarini

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyunda qabul qilingan PQ-3775 "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mammalakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi qarorida ta'kidlab o'tilganidek, keyingi yillarda mammalakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanshing ustuvor yo'nashlariha hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalgalashirilmoxda.



## XALQARO ALOQALARINI MUSTAHKAMLASH YO'LIDAGI TASHABBUS

2018-yil 19-iyun kuni "Tillar va adabiyot" kafedrasi ingliz tili o'qituvchisi Gulnoza Aripova va 4-bosqich "Teatrshunoslik" bo'limi talabasi Sevinch Odilova O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus Filialiga tashrif buyurdilar.

Tashrif mobaynida Nukus filialining tuzilmasi, kafedralarining ish faoliyati o'rganib chiqildi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida olib borilayotgan loyihamalar haqida ma'lumot berib, bu loyihamalar institutning yosh izlanuvchilari, professor-o'qituvchilari va talabalari uchun foydasi ahamiyatlari ekanligini ta'kidlab o'tdi. Misol tariqasida esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-tonli qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'at qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Chet tillarini o'qitishning innovatsiyaviy metodikalarini rivojlantirish Respublika ilmiy-amaliy markazi (RIAIM)

tomonidan hamda O'zbekistondagi Britaniya Kengashi bilan hamkorlikda "ESP Reform: ENSPIRE-U" (Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish) doirasida amalga oshirilayotgan loyihamning maqsad va vazifalari, san'at va madaniyat sohasi rivojidagi o'rnii haqida to'xtalib o'tdi. Slaydlar orqali loyihamda ishlab chiqilayotgan Syllabusni chet tili o'qituvchilarga tushuntirdi va uning ta'limiy ahamiyati haqida alohida to'xtalib o'tdi.

**Tashrifdan asosiy maqsad UZDOC2.0 loyihasi boyicha presentatsiya qilib, Turin universitetida ortirtgan tajribalari bilan o'rtoqlashdi va tinglovchilar tomonidan berilgan savollarga javob berdi.**

Tinglovchilarni loyihamarga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida Gulnoza Aripova o'z ma'rurasida qay tarzda ITEC dasturini yutib olib Hindistonning, Nyu Deli shahridagi Xalqaro menegment institutida malaka oshirib kelganligi haqida gapirib o'tdi. So'ng qanday qilib ushbu loyihamaga a'zo bo'lish kerakligi, anketa to'ldirish yo'llari va

eng asosiysi ingliz tilini bilish muhimligi haqida so'zldi. Nukus filialida xalqaro aloqalar bo'limi mavjud emasligi sababli, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Xalqaro aloqalar bo'limi bilan uzviy aloqada bo'lib, yangiliklaridan xabardon bo'lish mumkinligi haqida ta'kidlab o'tildi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Teatrshunoslik" ta'lim to'nalishi 4-bosqich bitiruvchisi Sevinch Odilova so'zga chiqib, malakaviy diplom bitiruv ishining talabari, uning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi haqida ma'lumot berdi. Misol tariqasida o'zining diplom ishining mavzusi, ya'ni hozirda Toshkent teatrlerida zamonaviy stenografiyaning o'ziga xosligi, teatr dekoratsiyasidagi yangicha yondashuvlari, usullari haqida gapirib o'tdi.

Filial professori N.Ansatbayev so'zga chiqib, kelgan mehmonlarga filial nomidan o'z minnaddorchiligini bildirdi va hamkorlik aloqalarni yanada mustahkamlash kerakligi haqida o'z fikrilarini bayon etdi. Filial o'qituvchilari o'quv-ilmiy seminaridagi aytilgan loyihamarga qat-



## MAFTUNKOR RAQLAR SEHRI

targ'ib etish bilan birga, to'garakka kelgan har bir qizning ruhiy holati, xarakteri, o'ziga xosligini hisobga olib ular bilan mashg'ulotlar olib boradilar. "Shodiyona" raqs ansambl uchun "Vals", "Qo'g'irchoq", "Bayot", "Jonon", "Dugonalar", "Munojot", "Rohat", "Tanovor", "Buxorocha", "Do'qi-do'qi", "Xorazmcha", "Doira" kabi raqlarini sahnalashtirdilar. Saida Zokirovaning ustozlari Arutyunova Bella Artyomovna, Rasulxodjayeva Erkinoy, Litvinova Tamara Grigoryevna, Sultanov Rustam Musayevich, Salimova Svetlana Jo'rayevna, Ismatova Yulduz Asatovna, Karimova Roziyalardan saboq olgan. Ustozlarim orasida ayniqsa menga pedagog bo'lib yetishishimda xizmat qilgan Roziya Karimovaning o'rni beqiyos. Shuningdek,

balolarni ruhan kuchli, o'z maqsadi sari dadil bo'lishida ustozim Yulduz Ismatova esa to'garakka endigina kelib qo'shilgan bolani ham sahnaga olib chiqqan. Bu fazilatlar mening faoliyatimda ham muham o'rinn egallaydi". 47 yillik tajribasi bilan pedagog Saida Zokirova hozir ham ustozlari o'gitlariga amal qilib keladi. Endilikda ustoz va shogirdlar milliy raqlarini o'z shaklini yo'qotmagan holatda targ'ib etib, barchaga namoyish etib borishadi. Ularning ijodiy faoliyatlariga omad va ulkan zafarlar tilaymiz.

**Munisaxon SIDDIQOVA,  
Xalq ijodiyoti fakulteti, "Madaniyat va san'at  
muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lim  
yo'nalishi 4-bosqich talabasi**

nashish istagi borligini va bundan bu-yon hamkorlikni kuchaytirishlarini ayтиб о'tdi.

Joriy yilning 20-iyun kuni Erasmus+ UZDOC 2.0 dasturi rejasiga ko'ra O'zbekistonning 6 ta universiteti koordinatorlari uchun Qoraqalpoq davlat universitetida seminar-trening tashkil etildi. Seminarda Toshkent kimyo-teknologiya institutidan Z.Babaxanova, Toshkent moliya institutidan U.Xalikov, Naman-gan davlat universitetidan P.Lutfullayev, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutidan G.Aripova va S.Odilova, Qarshi davlat universitetidan A.Kurbanovlar ishtirok etdilar.

Qoraqalpog'istoniga tashrif buyurgan oliy ta'lim vakillari Qoraqalpoq davlat universiteti tuzilmasi, u yerdagi ta'lim yo'nalishlar, doktorantura bo'limi va doktorlik markazida olib borilayotgan izlanishlar haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Seminar-treningda 2018-yil, 1-2-oktyabr kunlari UzDOC.2.0. loyihasi bo'yicha yig'ilish muhokamasi bo'lib o'tdi. Yig'ilishning asosiy maqsadi esa Turin va Granada Universitetlarida o'rganib kelgingan bilimlarni O'zbekistonda tadbiq etish, ishlab chiqaruvchi va izlanuvchilar orasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganish va rivojlantirishdan iborat. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligi masalalari muhokama qilindi va oktyabr oyida bo'lib o'tadigan yig'ilish uchun ish beruvchidan olinadigan so'rvonoma tuzildi. Tuzilgan so'rvonomalarni esa har bir loyiha ishtirokchisi o'z oliygohida muhokama qilib, o'zgartirishlar kiritib kelishi topshirildi.

O'ylaymizki, amalga oshirilayotgan islohotlar yurtimizda ilm-fan rivojlanshiga va jahon standartlari talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratishga katta hissa qo'shadi.

**Kurshida FAYZULLAYEVA,  
Tahririyot va nashriyot bo'limi  
muharriri**

1.

Одатда оиласда фарзанд тугилса сүйинишади, кўкларга кўтариб Оллоҳга шукроналар айтишиади, не-не умидлар-у, шодликлар билан чиройли исм танлаб қўйшиади. Менда эса тамомила акси бўлган. Онам бечора қисмат чархпалагининг не сабаб тескари айланётганини билсалар-да, изтиробларини шундоқ ҳам аламлар тўлиб ётган қалбининг туб-тубига кўмганлар.

2.

Гўдак бўлиб йиглашга ҳаққим йўқ эди. Мехр билан кимга тамшанишини, согинчли нигоҳларимни кимларга қартишини билмас эдим. Ҳудди кераксиз кузги япроқлар сингари заъфарон тусга кирган рангимда сўлгин табиатнинг нурай бошлаган тасвиirlари акс этган. Умрнинг ўзи вактнинг қўйинида мени катта қила бошлади.

3.

Ота меҳрини сира ҳис қилмаганман. Уч опамнинг ҳам пешонасидаги ёзувлар менинг ўхшарди. Биз ўғил боланинг суратлари ҳавас билан итиб қўйилган деворлар орасида ўғсанмиз. Энг катта опамни ўзи истамаган кишиисига турмушга бераётганинида ўша девордаги суратларни ёқиб юборгандар. Онам “дадангиз” деб атловчи зот ўйимизга яна битта аёл олиб келдилар.

4.

Хеч қачон қувонч уформаган ўйимизни халоват деб аталмиширин неъмат ҳам таркетиб кетди. Онам бизни ташлаб кетганида ўша дада тобутни кўтартмадилар, қабристонга бир марта бўлса ҳам бормадилар. Мен умримда бунчалик узок йигламагандим.

5.

быть счастливым». Почему я начала говорить о счастье? Я считаю, что каждый человек, проживая свою жизнь, стремится стать счастливым. Задумываясь о завтрашнем дне, мы непременно пытаемся максимально извлечь из этих уроков все то, что для нас необходимо-греть счастье внутри, какими бы не были обстоятельства.

Урок... Это понятие имеет множество значений. Однако, каким бы не представлялся нам урок, он имеет одно предназначение – служить каким-либо примером, исходя из которого мы делаем для себя бесценные выводы на нашем «школьном» пути жизни.

Вы можете спорить со мной. Возможно я не права. Однако, когда дело касается прошлого или же завтрашнего дня каждый из нас пишет по своему.

Мои мысли об уроках на завтра... я могу сказать лишь одно – что они только положительные. Как бы люди не рассуждали, каждый человек – кузнец своего счастья, главный герой своей жизненной сцены, либо автор своего первого и единственного бестселлера. В ком вы видите себя – совсем не важно, ибо от нас самих зависит наш сегодняшний урок, который мы получим и наш завтрашний день, которого мы ожидаем с надеждой.

Мы не знаем, что будет завтра. Не знаем, чего ожидать в нашем завтрашнем дне, какие жизненные повороты нам приготовила жизнь?

Но знаю одно – что прошлое в прошлом, настоящее в нас, будущее не известно, а смысл – в мечте!

**Сабина БЕРДИЕВА,**  
студентка 2 курса направления  
«Организация и управление  
учреждениями  
искусства и культуры» ГИИКУ

## АЁЛ

(Аёл тилидан)

Иккинчи опам нотанини ўтигит билан уйдан қочиб кетганларида дада бизларни кўчага қўшиб солди. Ўшанда совуқ тунда азонгача мудраб чикқанодик. Мен осмонга қараб аччиқ қисматнинг таъмидан азоблар чекканимни Оллоҳимга айтиб нолалар чекдим. У бизларни эшишган бўлса керак.

6.

Икковлон қувгиндишлар иш қидира бошладик. Нозик билакли учинчи опамни ўйлдан оздиришгач, боши берк кўчага кириб қолди. Афуски, энди у тунлари бебурд кимсалар бағрида тўлғониб пул топар, бу кўчадан чиққиси келмас, чиқолмас, қора тақдирининг хунук ўтмиш ёзувларига исён қилиб мақсадсиз яшарди.

7.

Мен тамомила ёлгиз қолдим. Тўртта қиз тўрт тарафга қараб сочилиб кетдик. Минг истасак ҳам аввалгидек дийдорлашиш, ҳеч бўлмаса бир кеча сирлашиб тонг оттириши насиб этмади. Онамиз бизларни шу кунлар учун туққанмиди?

8.

Мен ўша дадани согинмасдим. Чунки ундан меҳр кўрмаганман. Эшишишмча иккинчи аёл ҳам унга орзусидек ўғил ҳадя этолмабди. Балким, ўша дада ўғил ё киз кўриш бандаси кўлида эмас эканлигини кейинчалик англаб етгандир? Бунинг учун нега биз қурбон бўлдик?

9.

Бир пайтлар онам мен учун асраб қўйган атлас кўйлакни кийиб олдим. Кўзгуга қарасам нигоҳларимда совуқ сукунат ҳукмрон туради. Мени ҳам баҳтили бўлишга ҳаққим бор-ку. Соchlаримни қирқ кокил қилиб ўриб юра бошладим. Менга ижсарада турувчи уйдаги нуроний кампир ши топиб берди.

10.

Бир йигит тинмай изҳори дил айтгани айтган. Аммо турмушга чиқишидан жуда кўрқаман. Ўғил кўролмасамчи? Бугун чексиз хаёллар, саноқсиз саволлар қаршисида жим турибман. Баланд кўприк остидаги дарё сокин оқиб рухга осудаликни багишламоқда. Ортимдан ўша йигит келиб қучиб олди. Мен қўлимни унинг кўлларига тутдим. Рухимиз бирлашиди.

11.

Она бўлиши тараффудидаман, яқин орада баҳтим бутун бўлади. Эрта тонгда останамга хасталикдан қариб қолган бир кимса келиб “дадангиз” деди. Негадир бу сўз менга бегонадек туюлди. У кимсани бошқа кўрмадим.

12.

Қизлик бўлдим. Дафъатан, қалбимга кўркув соя ташлаган, аламларим уммон каби тошар, рухимда ички дард галаён қиласди. Қўлимдаги бегубор, бегунон гўдак инграб кўкрагимга тамшана бошлади. Эшиқдан кириб келган маҳрамим мен умримда хеч кимнинг нигоҳида кўрмаган чин меҳр билан гўдакка талпинди. Оллоҳга беҳисоб шукроналар айтдим. Бугун баҳтиман!!!

Достонбек РАҲМАТУЛАЕВ,  
“Санъат назарияси ва тарихи (киношунос)”  
мутахассислиги 2-босқич магистранти

## Мои мысли об уроке на завтра

Завтра... Почему люди так часто используют это слово?

Почему мы так часто задумываемся о завтрашнем дне? Наступит ли оно вообще? Когда дело касается будущего, у человека создается безмерное количество вопросов. Чем больше на них ответы, тем больше у нас возникают вопросы. Каждое утро открывая глаза, я начинаю задумываться об уроках вчерашнего дня, одним словом – прошлого. Правильно ли я поступила в той или иной ситуации? Как я должна была себя вести? Или же - почему получилось так, как я вовсе и не планировала в обычной жизненной ситуации?

Нужно признать, что я отношусь к себе довольно критично. Порой, это качество самокритики помогает усвоить уроки прошлого и дает возможность не совершать этих же ошибок в последствии.

На самом деле, каждый прожитый нами день – это большая школа жизни. Нередко за эти уроки мы расплачиваемся ценой своей жизни, и каждый раз, задумываясь об уроках на завтра, люди склонны смотреть с оптимизмом на будущее, на завтрашний день. Неважно насколько у человека реалистические взгляды, ибо надежда есть всегда.

Как говорил Джордж Оруэлл: «Люди могут быть счастливы лишь при условии, если они не считают счастье целью жизни».

Действительно мы все время куда-то торопимся, суетимся и порой погруженные в тонне суеты забываем о главных ценностях жизни...

Позвольте также отметить высказывание Конфуция, которое гласило, что «в погоне за счастьем иногда нужно просто остановиться и

Men talaba bo'lganimdan baxtliman. Chunki, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabasi bo'ldim. Doim teleekran orqali institutni ko'rib jannatmakon hovlisi, bu yerdagi ustozlar, tahlil olayotgan talabalar, shart-sharoitlari, o'quv auditoriyalari, dars jarayonlari, qolaversa, talabalar turar joylaridagi barcha qulayliklar meni va oila a'zolarimni havasimizni keltirgan.

## TALABA BO'LISH BAXTI

Ayniqsa, har yilgi bo'ladigan talabalar festivalini ko'rib, unda ishtirok etib o'z asarlarim bilan san'at ahliga beminnat xizmat qilib, hissamni qo'shishni niyat qilganman. Ota-onam mahallamizda o'qishga kirgan yigit-qizlarga havas ko'zi bilan qarab, "ilohim bizning qizimiz ham talaba bo'lsin", deb duo qilishlari haligacha qulog'im ostida jaranglaydi.

O'zbek dramaturglari orasida o'z o'rninga ega buyuk iste'dod egasi, O'lmas Umarbekov asarlarini o'qib, qahramonlariga mehrim tushdi. Dramaturgini g'oyibdan ustozim deya, o'zimga taskin berdim. Maktab sahnasida turli tadbir, bayram kechalarida, adib qalamiga mansub asardan biror parchani qo'yishga shoshar va ustozlarim rag'batidan ko'nglim shodlanar edi. Yillar o'tib, o'zbek ijodkorlari, ularning betakror asarlarini mutolaa qildim. Ayniqsa, Prezidentimiz har gal anjumanlar saroyida minbardan turib gapirganlarida, ko'zlar chaqnagan kelajakka ishonchi bor yoshlarni ko'rib, ular qatorida bo'lishni havas qilar edim.

Bugun biz yoshlar uchun imkoniyat eshilklari keng ochilgan. Prezidentimiz 2017-yil 3-avgust kuni ijodkor ziyoilalar

bilan uchrashgan chog'ida ham katta ishinch bildirib gapirgan ta'sirli so'zları bo'lajak san'at vakillarini g'ururlantirib yubordi. Bugun yozuvchi va dramaturglar o'z asarları bilan dunyoga milliy urfodatlarimiz, an'ana va qadriyatlarimizni tanitsa, biz bo'lajak yosh dramaturglar ustozlarimiz o'gitlari asosida yurtimizga kerakli mutaxassis bo'lib xizmat qilishga astoydil bel bog'laymiz. Berilgan ushbu imkoniyatdan oqilona foydalanih o'qib, izlanamiz, o'zimizning ilg'or innovatsiyalarimizni tatbiq etamiz. Boshqa o'quv yurtlari talabalari bilan bemalol ijobiy tarzda bellashamiz. Ustozlarimizni ishonchini oqlaymiz.

Talabalik baxtiga musharraf bo'lgan yigit-qizlarga omad, baxt tilayman. Biz kelajakda ustozlaru, ota-onalarimizni ishonchlarini oqlab, Vatanimizga, institutimizga sodiq farzandlar bo'lib, o'qib mehnat qilamiz.

Oq yo'l senga ey, talaba.  
Yo'ling ravon bo'lsin doim,  
Ishonch katta, senga bugun,  
Manzilingdan adashma hech.

Madinabonu KOMIROVA,  
Sahna va ekran san'ati  
dramaturgiyasi 1-bosqich talabasi

**Muassis:**  
O'zbekiston davlat san'at va  
madaniyat instituti

Bosh muharrir:  
Nafisa RAIMQULOVA

Tahrir hay'ati:  
Go'zal XOLIQULOVA  
Hamadan ISMOLOV  
Antonino KOSHELEVA  
Rashid USNATOV  
Mas'ul kotib:  
Kurshida FAYZULLAYEVA  
Muxbirlar klubi sardorlari:  
Muhammadi BOZOROVA  
Shavkat DO'ST MUHAMMAD

Tahririyat manzili: 100025 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy.  
Telefon: (0-371) 230-28-13.  
www.dsni.uz; dsni\_info@olam.uz

Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.  
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz -1.

Sahifalovchi:  
Dilmurod DO'STEBEKOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi.  
O'chami – A3, hajmi – 2 bosma taboq.  
Nusxasi – 1250 dona. Narxi kelishilgan narxda.  
Chop etishega 30.08.2018 yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami  
bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yhatga olingan.